



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Саидахроп Саидахмедович Гуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ақлий меҳнатнинг ўзига хос хусусиятлари, унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари	5
Умар Худайбердиев “Яшил” иқтисодиёт ривожланишининг муҳим омиллари	9
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Зарина Муродовна Мухаммедова Хизматлар соҳасининг виртуаллаштирилган инновацион инфратузилмасини шакллантиришда электрон иқтисодиёт воситаларидан фойдаланиш имкониятлари	12
Sirojiddin Abdullayevich Maxmudov Raqamli iqtisodiyot sharoitda elektron savdoning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	16
Jonibek Adxam o'g'li Maxmudov Mintaqani barqaror rivojlantirishda turizm sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar va ularda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	22
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Бекзод Низамкулович Атамуродов Respublikamizda maxsus iqtisodiy zonalarining bugungi kundagi holati tahlili	28
ТАДБИРКОРЛИК, МЕҲНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Ашур Али Рустам ўғли Латипов Камбағалликни қисқартиришда иш билан бандликни таъминлашнинг стратегик йўналишлари	31
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Тулкин Саидахмедович Шарипов Овқатлантириш хизматларини ривожлантиришда оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш имкониятлари	39
Шохида Ильясовна Артикова, Дилафруз Бахрилловна Абдуллаева Развитие сферы услуг в условиях цифровой трансформации экономики	43
Zafarjon A'zamovich Axmedov Tibbiy xizmatlari bozorida iste'molchi (bemor)larning talabini baholash borasida yondoshuvlari	47
Мурод Нозирович Ибрагимов Совершенствование формы и содержания технического задания на оказание консультационных услуг	51
Фарход Анварович Сафаров Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини такомиллаштиришда innovatsion jarayonlarning xususiyatlari	57
Nasiba Ergasheva Keytering outsorsing xizmatlarini rivojlantirishning zamonaviy tryendi sifatida	62
Khudoynazar Ergashev, Azizbek Khabibullaev, Odiliya Soibnazarova Supporting the service sector from the state government mechanism	66

Sirojiddin Abdullayevich Maxmudov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktranti

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA ELEKTRON SAVDONING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda elektron savdoning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ko‘rib chiqilgan. Mamlakatda onlayn-bozorning o‘shishiga hissa qo‘shadigan iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan mashhur marketpleyslar faoliyati tahlil qilinib, istiqboolda ularning rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, elektron savdo, marketpleys, onlayn-do‘kon, uzum market, zoodmall, mediapark, olcha, korzinka.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot — bu raqamli texnologiyalar va internetdan foydalanish orqali iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonidir. Bu soha, asosan, raqamli ma’lumotlar, internet, mobil ilovalar va boshqa raqamli platformalar yordamida biznesni boshqarish, xizmat ko‘rsatish va savdo qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Raqamli iqtisodiyot quyidagi asosiy jihatlarini o‘z ichiga oladi:

1. E-tijorat: Internet orqali tovarlar va xizmatlarni sotish.
2. Ma’lumotlar tahlili: Katta ma’lumotlarni (big data) yig‘ish va tahlil qilish orqali biznes qarorlarini qabul qilish.
3. Raqamli xizmatlar: Onlayn platformalar orqali taqdim etiladigan turli xil xizmatlar (masalan, onlayn bank xizmatlari, masofaviy ta’lim).
4. Ijtimoiy tarmoqlar: Raqamli marketing va brend reklamasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish.
5. Innovatsiyalar: Raqamli texnologiyalar yordamida yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish.

Raqamli iqtisodiyot nafaqat biznesni o‘zgartirmoqda, balki jamiyatning barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatmoqda, jumladan ish joylari yaratish, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va kundalik hayotimizni yanada qulaylashtirishga yordam bermoqda. Globalizatsiya sharoitida elektron tijorat va elektron savdoni rivojlantirish maqsadida turli sun’iy intellektdan foydalangan holda mijozlarning talabini o‘rganish, virtual (VR) va to‘ldirilgan texnologiyalarni (AR) qo‘llash, blokcheyn texnologiyalar orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda mobil texnologiyalar va internet tarmog‘ining kengayib borishi hamda hukumat tomonidan bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida elektron savdoni rivojlantirish uchun imkoniyatlarning kengayishiga olib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev [1] Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammitida so‘zlagan nutqida «elektron savdoni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan savdoni soddalashtirish to‘g‘risidagi bitimni qabul qilish»ga chaqirgani O‘zbekiston sharoitida onlayn savdoning rivojlanishiga katta e’tibor qaratilayotganidan dalolat bermoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Keyingi yillarda elektron savdo va elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, BMTning elektron tijoratga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada «elektron tijorat sifatida raqamli ma’lumotlarni, shu jumladan matnlar, tovushlar va vizual ma’lumotlarni qayta ishlash va uzatishga asoslangan tashkilotlar va jismoniy shaxslarning tijorat faoliyati bilan bog‘liq operatsiyalar majmui» [2], deb ta’rif berishgan.

Xorijiy olimlardan Jian Chen AQSh va Xitoy mamlakatlari misolida onlayn chakana savdo strategiyasini o‘rgangan holda, quyidagicha ta’rif berib o‘tgan «elektron tijoratni internet orqali moddiy va nomoddiy tovarlar va xizmatlarni sotib olish/sotish bo‘yicha operatsiyalar majmui sifatida aniqlash mumkin. U onlayn chakana savdo, xaridlar, onlayn auksionlar va onlayn to‘lovlarni o‘z ichiga oladi» [3]. Boshqa bir qator xorijiy olimlar «an’anaviy savdoning elektron

savdoga nisbatan afzalligi axborot texnologiyalardan foydalanish hisobiga tadbirkorlikning qo‘shimcha qiymati yaratilishini» [4] ta‘minlanishini ta‘kidlab o‘tishgan.

MDH olimlari, shu jumladan rossiyalik tadqiqotchilar I.B. Nazarova va T.V.Dianova Rossiya sharoitida elektron tijoratga xos bo‘lgan salbiy xususiyatlarni aytib o‘tishgan, xususan «yetkazib berish xarajatlarining yuqoriligi, axborot texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislarni kam jalb etilganligi, aholining onlayn to‘lovlarga nisbatan ishonchsizligi» [5].

O‘zbekistonlik olimlardan akademik S.S.Gulyamov [6] o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyot, shu jumladan elektron tijoratning shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan.

Tadqiqot metodologiyasi elektron savdo va elektron tijorat bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan ilmiy-uslubiy adabiyotlar, statistik ma‘lumotlar va amaliy misollar tahliliga asoslanadi. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, mantiqiy va abstrakt fikrlash, monografik kuzatuv, qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda elektron tijorat bozorining o‘sishi quyidagi iqtisodiy-ijtimoiy omillar asosida ta‘minlanishi mumkin:

- Aholi daromad darajasini o‘sishi;
- Internet auditoriyaning o‘sishi;
- Internet foydalanuvchilarni elektron tijoratga jalb qilinish darajasi;
- mahsulot toifalarining ko‘payishi;
- mahsulot toifalari ichida xaridlarning o‘sishi;
- xaridlar hajmining o‘sishi.

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat foydalanuvchilarining demografik jihatdan tahlili qilinishi, foydalanuvchilarni onlayn xarid qilishga jalb qilinishini belgilovchi uchta asosiy omilni ajratib ko‘rsatadi, bular aholining daromad darajasi, internetdan foydalanish darajasi va yashash makoni.

Daromad darajasi. Yuqori daromad turli xaridlarni Internet orqali faolligini rag‘batlantiradi. Bu, birinchi navbatda, mahsulotlar assortimentining yanada keng doirasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Xaridor vaqtini tejash va qisman mahsulot narxini tushirish ham katta rag‘batlantirish hisoblanadi. Masalan, Rossiya elektron tijorati misolida ko‘radigan bo‘lsak molotok.ru sektori foydalanuvchilarining 59 foizi Internetdagi mahsulotlar arzonligi, 58 foizi qulaylik tufayli internetda xarid qilishga afzallik berishini bildirgan bo‘lsa, ulardan 42,6 foizi an‘anaviy savdoda ehtiyoj uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni o‘z vaqtida xarid qilib bo‘lmaydi deb hisoblaydi.

Internetdan foydalanish tajribasi. Internet foydalanuvchilarining onlayn-xaridlarni amalga oshirishga jalb qilinganlik darajasi ularning Internetda ishlash tajribasiga bog‘liq bo‘lishi to‘g‘risidagi qonuniyat mavjud. Aholining internetdan foydalanish tajribasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, elektron tijorat xizmatlaridan shunchalik ko‘proq foydalanadi.

Yashash joyi. O‘zbekistonda internetda mahsulot xarid qiluvchilarning asosiy qismi asosan (76%) Toshkent shahri, Toshkent viloyati va boshqa viloyat shaharlarida yashaydi. Bundan tashqari, bu munosabat daromad va Internetdan foydalanish tajribasi to‘g‘risida so‘z ketganda ham saqlanib qoladi.

Elektron tijoratda savdoning masofaviyligi (buyurtmani bajarish tezligi, mahsulotlarni tekshirishning iloji yo‘qligi va boshqalar) bilan bog‘liq aniq kamchiliklar mavjud. Biroq, biron-bir sababga ko‘ra kerakli mahsulotni chakana savdoda xarid qilishning iloji bo‘lmasa yoki bu mahsulot xaridor istayotgan narxga to‘g‘ri kelmagan holatda elektron tijoratga nisbatan boshqa bir raqobatchi topilmaydi. Yuqoridagi omillar O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish istiqbolini ko‘rsatib beradi. O‘zbekiston elektron tijorat hajmi bo‘yicha qo‘shni davlatlarga nisbatan qoniqarli bo‘lsada, jahon iqtisodiyotdagi elektron tijorat hajmining o‘sishiga nisbatan ahamiyatli darajada ortda qolmoqda.

O‘zbekistonda elektron savdo elektron-axborot biznesning sektori sifatida bugungi kunda amalda qo‘llanilayotgan yechim va yo‘nalishlarga nisbatan bir muncha ko‘p muammo va savollarga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun, O‘zbekistonda G‘arbning klassik biznes-modellaridan

katta farq qiluvchi elektron tijoratni rivojlantirish xususiyatlari va modellaridagi barcha mos kelmaydigan holatlarini aniqlash, shuningdek, paydo bo‘lgan dolzarb muammolarni hal qilish va bartaraf etish bilan bog‘liq internet-biznes istiqbollarini baholash masalalari O‘zbekistonning jahon virtual tarmog‘ida elektron savdoni samarali yo‘lga qo‘yishi va rivojlantirishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Internetdagi ochiq tarmoq muhiti va brauzer/server ilovalariga asoslangan holda xaridorlar ham, sotuvchilar ham yuzma-yuz muloqotsiz biznes faoliyatini amalga oshirishlari mumkin. Sotuvchilarning naqd pullarini inkassatsiya qilish va iste‘molchilar to‘lovlari tarmoqda qayta ishlanadi. Tarmoq orqali iste‘molchilar (foydalanuvchilar) va sotuvchilar (savdogarlar) tomonidan turli xil tadbirkorlik faoliyati, masalan, savdo faoliyati, moliyaviy faoliyat va tegishli kompleks xizmat ko‘rsatish faoliyati va boshqalar o‘ziga xos yangi tijorat ish rejimini tashkil qiladi. So‘nggi yillarda keng polosali internet texnologiyasi va mobil internet texnologiyasining tez ommalashishi bilan rivojlangan mamlakatlar va mintaqalarning elektron tijorat bozori tez o‘shish tendensiyasini saqlab qoldi. Elektron tijorat biznes rejimini o‘zgartiradi. An’anaviy biznes rejimida ijtimoiy resurslarni samarali taqsimlashga erishish qiyin va uning sababi uch jihatdan namoyon bo‘ladi.

An’anaviy biznes bitimi sotuvchilar tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu rejimda mijozlar xarid qilish vaqti va savdo usulini tanlash imkoniyatiga ega emas. Do‘konlar yoki sotuvchilar ish vaqtini, savdo usulini va savdo saytini boshqaradi. Xarid qilish uchun mijozlar ushbu qoidalarga rioya qilishlari kerak.

O‘zbekistonda turli tovar va xizmatlarni taklif qiluvchi ko‘plab mahalliy onlayn-do‘konlar mavjud. Bunga elektronika, maishiy texnika, kiyim-kechak, kosmetika mahsulotlariga ixtisoslashgan onlayn-do‘konlar kiradi. Ba’zi mashhur mahalliy onlayn-do‘konlar ro‘yxati quyida keltirilgan:

1. Mediapark.uz
2. Texnomart.uz
3. Mato.uz
4. Aynimo.uz
5. Alif do‘koni

Statista tadqiqotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2021-yilda mamlakatning elektron tijoratidan 1,39 milliard dollar daromad keltirildi va mamlakatdagi jami raqamli daromadlarning 90,2 foizini tashkil etdi. Qolgan 9,8% raqamli ommaviy axborot vositalari, elektron xizmatlar va elektron sog‘liqni saqlash sohalari hissasiga to‘g‘ri keldi. O‘zbekistonda raqamli xarajatlar darajasi past bo‘lib, 2021-yilda iste‘mol xarajatlarining 3,91 foizini tashkil etadi, bu esa Osiyodagi o‘rtacha 7,34 foizni tashkil etadi. 2025 yilga borib elektron tijorat daromadlarining o‘rtacha yillik o‘shishi 18,7% ga yetishi kutilmoqda. Odamlar asosan elektronika (31%) va kiyim-kechak mahsulotlarini (28,6%) onlayn xarid qilgan, keyin esa mebel (17,2%), go‘zallik, salomatlik va parvarish (7,1% va o‘yinchoqlar, sevimli mashg‘ulotlari va o‘z qo‘llari bilan qilingan buyumlar (6,5%)).

2024-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning elektron tijorat bozori sezilarli o‘shishni boshdan kechirmoqda, prognozlar 2027-yilga borib 1 milliard dollarlik aylanmaga potentsial o‘shishni ko‘rsatmoqda, bu internetga kirishning ortishi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va yaqinda erishilgan Uzum kabi mahalliy bozorlarning ko‘tarilishi bilan bog‘liq (1-jadval).

Tahlillarga ko‘ra, elektron tijorat bozori 2024 yilga kelib yillik o‘shish sur‘ati 11,12 foizni tashkil etgan holda 1,54 milliard dollar daromadga yetishi kutilmoqda.





Uzum O‘zbekistondagi yetakchi elektron tijorat platformasi bo‘lib, tez o‘shishni boshdan kechirmoqda va bahosi 1 milliard dollardan ortiq bo‘lgan yagona shoxli maqomga erishmoqda.

O‘zbekiston hukumati raqamli landshaftni yaxshilashga qaratilgan yangi qoidalar va siyosatlar orqali elektron tijoratni rivojlantirishni faol qo‘llab-quvvatlamog‘da.

Shu bilan birga O‘zbekistonda elektron savdoni rivojlantirishda Google, Apple, Meta va Booking.com kabi bir qancha yirik xalqaro texnologiya kompaniyalari O‘zbekistonda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yib, bozorga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

1-jadval

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan eng yirik marketplasar tahlili [7]

Ko‘rsatkichlar				
Faol foydalanuvchilar	2mln (oyiga)	1,5mln (oyiga)	150-200 (ming, oyiga)	500 (ming, oyiga)
Olib ketish punktlari/rejali	100/170	30/114	30/mavjud emas	3/mavjud emas
Bog‘langan sotuvchilar	500 dan ko‘proq	500 dan ko‘proq	mavjud emas	35 dan ko‘proq
Xaridlar soni	1,5mln	mavjud emas	mavjud emas	mavjud emas

Ijobiy o‘shiga qaramay, O‘zbekistondagi elektron tijorat sektori hali ham logistika infratuzilmasi, iste‘molchilar ishonchi va raqamli xizmatlardan foydalanishdagi mumkin bo‘lgan to‘siqlar kabi muammolarga duch kelmoqda.

Ma‘lumki, hozirgi kunda, O‘zbekiston elektron savdo bozorida bir qator xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Shundayn ayrimlari, xususan, Uzum va Zood platformalari bir yaxlit ekotizim sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ayrimlari esa, masalan Korzinka tarmog‘i ham offlayn ham mobil ilova orqali onlayn formatda faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Keyingi jadvalimizda elektron savdo ishtirokchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tdik.

2-jadval

Elektron savdo bilan shug‘ullanuvchi ishtirokchilarning o‘ziga xos xususiyatlari

[7]

Tizim turi	Shirkat nomi	Kompaniya tavsifi	Yuklashlar (daqiq)	Zaxiralarni saqlash birligi	Yetkazib berish tezligi	Qabul qilish punktlari soni	Buyurtma uchun narx
1	2	3	4	5	6	7	8
EKOTIZIM	Uzum	Onlayn xaridlar(markerplace), fintech yechimlari, to‘lovlar va oziq-ovqat yetkazib berish xizmatlarini o‘z ichiga olgan raqamli ekotizim.	13,1	500 000	Toshkent bo‘ylab shu kuni yetkazib berish Toshkentdan tashqarida ertasi kuni yetkazib berish	500	- 43 dollargacha bo‘lgan buyurtmalar uchun yetkazib berish narxi standart to‘lov - 2,6 dollar -\$43 dan yuqori bo‘lsa, yetkazib berish bepul Uzum bozorining qabul qilish punktlariga bepul yetkazib berish
EKOTIZIM	Zood	Zood raqamli kredit platformasi bo‘lib, DialFinTech, Zoodpay elektron tijorat va elektron logistika xizmatlarini o‘z ichiga olgan politik ekotizimni ta‘minlaydi.	1,2	6mln	Toshkent bo‘ylab shu kuni yetkazib berish Toshkentdan tashqarida Ertasi kuni yetkazib berish	30+250 ta shkaf	Mahalliy va transchegaraviy qabul qilish punktlari va shkaflarga bepul yetkazib berish

MARKETPLACE	Mediapark	O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab 33 ta do‘kondan iborat keng tarmoqqa ega maishiy texnika va elektronika bozori.	0,46	Mavjud emas	Toshkent bo‘ylab 24soat ichida yetkazib berish Toshkentdan tashqarida Ertasi 3ish kuni yetkazib berish	Mavjud emas	\$2,6/ \$87,8 dan yuqori bepul - Toshkentdan tashqarida (80 tagacha). Toshkent shahridan (km) 35 km radiusda: \$6,6 35 dan 50 km gacha: \$8,3 - 50 km dan ortiq: har bir qo‘shimcha sayohat uchun \$8,3 + \$0,2
MARKETPLACE	olcha	2017-yilda tashkil etilgan onlayn-do‘kon, xaridorlarga etakchi jahon va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning yuqori sifatli mahsulotlarining xilma-xil tanlovini taklif etadi.	0,494	Mavjud emas	Toshkent ichida 1 dan 3 ish kunigacha Toshkentdan tashqarida 3 dan 7 ish kunigacha	Mavjud emas	Toshkent ichida 1 kg gacha: bepul 1 kg dan ortiq: \$2,2 (har bir qo‘shimcha 3kg - 0,4\$) Toshkentdan tashqarida \$17,6 dan ortiq buyurtmalar va og‘irligi 10 kg gacha: bepul 10 kg dan ortiq: etkazib berish joyi va paketning og‘irligiga qarab taxmin qilinadi
MARKETPLACE	Texnomart	Chakana savdo tarmog‘i 2008 yilda tashkil etilgan va O‘zbekistonda katta va kichik maishiy texnika va elektronika sotishga ixtisoslashgan	0,237	Mavjud emas	Mavjud emas	Mavjud emas	Yetkazib berish muddati har bir buyurtma uchun moslashtirilgan
ELEKTRON OZIQ-OVQAT	Korzinka	Bir qator mahsulotlar, jumladan, oziq-ovqat, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqalarni taqdim etuvchi elektron oziq-ovqat tarmog‘i	0,5	Mavjud emas	Faqat Toshkent ichida Dastlabki 3 ta yetkazib berish bepul Keyingi yetkazib berish \$1,3 20 kg dan ortiq buyurtmalar uchun qo‘shimcha \$0,1 kg	Mavjud emas	Faqat Toshkent ichida 2 soatlik yetkazib berish vaqti har kuni soat 09:00 dan 23:00 gacha Ertasi kuni yetkazib berish ham mavjud

Tadqiqotlarga ko‘ra, 2022-yilda yaratilgan va onlayn xaridlar (bozor), fintech yechimlari, to‘lovlar va oziq-ovqat yetkazib berish xizmatlarini o‘z ichiga olgan Uzum raqamli ekotizim oyiga 2,36 million tashrif bilan eng ko‘p tashrif buyuriladigan mahalliy elektron tijorat veb-sayti hisoblanadi. 2023-yil iyul oyida Uzum Market O‘zbekiston bo‘ylab 1 milliondan ortiq buyurtma yetkazib berdi. Taxminan 150 ming kvadrat metr maydonga ega logistika markazi O‘zbekistondagi eng yirik markazlardan biriga aylanadi. Bozor 2023-yil oxirigacha butun mamlakat bo‘ylab o‘z qabul qilish punktlari tarmog‘ini 400 tagacha kengaytirishni rejalashtirmoqda, Uzum bozoridagi mahsulotlar assortimenti esa 800 000 nomdan oshadi. 2023-yil iyun oyida “Uzum” eng mashhur “Click” elektron to‘lov xizmatini

sotib oldi. Yana bir mashhur elektron to‘lov xizmati Payme 2023-yilda TBC raqamli banki tomonidan sotib olingan.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston elektron savdoning o‘sishi uchun qulay sharoitga ega. Imkoniyatlardan foydalanish va tegishli muammolarni hal qilish orqali mamlakat elektron tijorat sektorining to‘liq salohiyatini ochib, raqamli asrda iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlay oladi. Ammo shu bilan birga O‘zbekiston sharoitida elektron savdoni barqaror rivojlanishini ta‘minlashda quyidagi omillarni e‘tiborga olish lozim:

1. internet omillari: sifatli internet xizmatini ta‘minlash (internet tezligi, mobil internet); logistika tizimini rivojlantirish (yetkazib berish, tarqatish punktlari); xavfsiz to‘lov tizimlarini ta‘minlash (mobil to‘lov, elektron hamen, bank kartalari);

2. iqtisodiy omillar: aholining to‘lovga qodirligi (aholining daromadi hamda kam foizli mikroqarzlarning mavjudligi); raqobat muhining mavjudligi (elektron savdo bozorida ishtirokchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat); raqamli infratuzilma va texnologiyalarni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etilishi (mahalliy va xorijiy instorlar);

3. texnologik omillar: mahalliy raqamli platformalarni rivojlantirish hamda xalqaro platformalar bilan integratsiyani ta‘minlash; sun‘iy intellekt, blokcheyn, big data kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish; foydalanuvchilar ma‘lumotlar xavfsizligini ta‘minlash;

4. ijtimoiy va madaniy omillar: aholining raqamli savodxonligini oshirib borish (internetdan foydalanish, elektron to‘lov va onlayn xarid bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish); elektron savdoga nisbatan ishonchni oshiri borish; turli ietimoiy tarmoq va OAV vositalari orqali elektron savdoni targ‘ibot qilib borish;

5. davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash: elektron savdo va elektron tijoratga oid normativ huquqiy bazani takomillashtirish; elektron savdoga oid texnologik kompaniyalar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/6847>. O‘zbekiston Prezidenti raisligida IHTning navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tdi.

2. UNCTAD. Information Economy Report 2015 // Unlocking the Potential of E-commerce for Developing Countries.—UNCTAD/IER/2015: UN, 2015. — S. 14–15.

3. Chen, Jian. Exploring online retailing strategies: Case studies of leading firms in the US and China. Massachusetts Institute of Technology, 2012.

4. Kauffman, R.J, Li, T, & van Heck, H. W. G.M. (2010). Business Network-Based Value Creation in Electronic Commerce. International Journal of Electronic Commerce, 15(1), 113–143.

5. Назарова И. Б., Дианова Т. В. Электронная торговля: преимущества, проблемы и «эффект скользящего» при снижении транзакционных издержек// Вестник МГИМО. 2012. № 4 (25).

6. Гулямов С. С. Перспективы развития цифровой экономики //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.

7. E-commerce in Uzbekistan_to-upload (4).pdf

8. Khamraeva S. N. Analysis of trends and trends in innovative development of agriculture //J. Scientific e-journal of economics and innovative technologies.

9. Xamrayeva S. O‘zbekistonda elektron savdo va elektron tijoratni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari //The Innovation Economy. – 2023. – Т. 1. – №. 01. – S. 35-40.

10. Хамраева, С. Н. Проблемы и перспективы развития электронной коммерции в Узбекистане. // Экономическое развитие России: вызовы и возможности в меняющемся мире : Материалы Международной научно-практической конференции, Краснодар, 24–27 января 2023 года / Кубанский государственный университет. Том 5. – Краснодар: ИПС Кубанского государственного университета, 2023. – С. 111-115. – ЕДН ЕНСКИЙW.

<p style="text-align: center;">С.Махмудов</p> <p style="text-align: center;">Факторы, влияющие на развитие электронной торговли в цифровой экономике</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются основные факторы, влияющие на развитие электронной коммерции в Узбекистане. Проанализированы экономические, социальные и технологические аспекты, способствующие росту интернет-рынка в стране. Также была проанализирована деятельность популярных торговых площадок Узбекистана и разработаны предложения по их дальнейшему развитию.</p> <p>Ключевые слова: цифровая экономика, электронная коммерция, маркетплейс, интернет-магазин. Uzum Market, Zoodmall, Mediapark, Olcha, Korzinka.</p>	<p style="text-align: center;">S.Makhmudov</p> <p style="text-align: center;">Factors affecting the development of electronic commerce in the digital economy</p> <p>Abstract. The article examines the main factors influencing the development of e-commerce in Uzbekistan. The economic, social and technological aspects contributing to the growth of the online market in the country are analyzed. The activity of popular marketplaces in Uzbekistan is also analyzed, and proposals for their further development are developed.</p> <p>Keywords: digital economy, e-commerce, marketplace, online store, Uzum Market, Zoodmall, Mediapark, Olcha, Korzinka.</p>
---	---

Jonibek Adxam o‘g‘li Maxmudov – SamISI, “Turizm” kafedrasida assistenti, Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TURIZM SOHASIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR VA ULARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada Samarqand viloyati turizm sohasidagi tarkibiy o‘zgarishlarga raqamli texnologiyalarning ta’siri tahlil qilingan. “Tarkibiy o‘zgarishlar”, “Raqamli texnologiyalar” va “Barqaror rivojlanish” tushunchalarining nazariy va uslubiy asoslari hamda turizmni raqamlashtirish bo‘yicha xalqaro tajribalar ko‘rib chiqilgan, shuningdek, mintaqada turizm sohasining hozirgi holati tahlil qilingan. Aniqlangan muammolar asosida turizmni raqamlashtirishni takomillashtirish, jumladan, yagona raqamli platformani yaratish, mutaxassislarning raqamli savodxonligini oshirish, davlat tuzilmalari, biznes va ilmiy hamjamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni faollashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar taklif etildi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, tarkibiy o‘zgarishlar, turizm, barqaror rivojlanish, raqamlashtirish, iqtisodiy rivojlanish, Samarqand viloyati.

Kirish. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida raqamlashtirish turli tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Samarqand viloyati boy madaniy merosga ega bo‘lib, katta turistik salohiyatiga ega. Biroq, mintaqaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash uchun turizm sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Mavzuning dolzarbligi turizm sohasini zamonaviy voqelikka moslashtirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, bu xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va qulay investitsiya muhitini yaratish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning rolini tahlil qilish va ularning Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini baholashdan iborat.

Mavzuga oid tadqiqotlar va xalqaro tajribalar sharhi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish turizm xizmatlari sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytiradi [1]. Masalan, Li Yun va hamkasblarining [2] ishida mobil ilovalar va onlayn platformalarni joriy etish turistlar va xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar o‘rtasidagi aloqani sezilarli darajada yaxshilash, shuningdek, turizm yo‘nalishlarini reklama qilish va targ‘ib etish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi ko‘rsatilgan.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalarning integratsiyasi nafaqat yangi turistlarni jalb qilishga, balki innovatsion xizmatlarni yaratishga ham yordam beradi. Germaniya va Fransiya kabi Yevropaning bir qator mamlakatlarida diqqatga sazovor joylar, mehmonxonalar, restoranlar va transport xizmatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni birlashtirgan integratsiyalashgan

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.